

**CHORVACHILIK TARMOG'INI RIVOJLANTIRISHDA  
YAYLOVLARDAN SAMARALI FOYDALANISHNING  
ASOSIY XUSUSIYATLARI**

*Nurmatov N.E.*

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti*

*Annotatsiya: Maqolada chorvachilik tarmog'ini rivojlantirishda yaylov yerlarining ahamiyati, yaylovlardan samarali foydalanish uchun zarur bo'lgan ilmiy-texnikaviy yondashuvlar, agrar siyosat, hayvonlarni boqish usullari va tabiiy muhitni saqlashga oid amaliy tavsiyalar, chorvachilikning rivojlanishini ta'minlashda yaylovlardan optimal foydalanishning ahamiyatini tushuntirish va uning iqtisodiy samaradorligini oshirishga qaratilgan amaliy yechimlar hamda O'zbekistonda yaylov yerlarining holati va mahsuldorligi hamda ulardan kelajakda samarali foydalanishning ustuvor yo'nalishlari bayon qilingan.*

*Kalit so'zlar: qishloq xo'jaligi, chorvachilik, yaylov yerlari, mahsuldorlik, ekologik vaziyat, yem-xashak zaxirasi.*

**THE MAIN CHARACTERISTICS OF EFFECTIVE USE OF  
PASTURES IN THE DEVELOPMENT OF THE LIVESTOCK NETWORK**

*Abstract: The article explains the importance of pastures in the development of the livestock sector, the scientific and technical approaches necessary for the effective use of pastures, practical recommendations on agrarian policy, methods of feeding animals and the preservation of the natural environment, the importance of optimal use of pastures in ensuring the development of livestock breeding, and practical solutions aimed at increasing its economic efficiency, as well as the state and productivity of pasture lands in Uzbekistan, as well as the priority directions for their effective use in the future done*

*Key words: agriculture, animal husbandry, pasture lands, productivity, ecological situation, fodder stock.*

Tabiiy resurslarning mavjudligi xavfsizroq bo'lib borayotgan va iqlim o'zgarishi tobora kuchayib borayotgan jahonda sut va go'shtga bo'lgan talabni qondirish uchun turli xil boshqaruv usullari, jumladan yaylovlardan foydalanish ishlab chiqarishning uzilish xavfini kamaytirishi mumkin. Yaylov chorvachiligi mahalliy talabni qondirish uchun sifatli oqsil va ozuqa moddalarini arzon narxlarda yetkazib beradi va mamlakatning importga qaramligini kamaytirishga xizmat qiladi. Cho'ponlar chorva mollari bilan ko'chib yurgani va suv va em-xashak olish uchun tabiiy muhit bilan mohirona munosabatda bo'lganligi sababli ishlab chiqarilgan mahsulotga nisbatan ishlab chiqarish xarajatlari past bo'ladi.

Chorvachilikning an'anaviy, ekstensiv shakli bo'lgan yaylov chorvachiligi bilan jahonda 100 ta davlatda 200 milliondan ortiq kishi shug'ullanadi. Yaylovchilar hayvonlarni turli xil muhitlar, masalan, yaylovlar, savannalar va tundralar bo'ylab ko'chiradi va boqadi. O'zgaruvchan ekologik sharoitga moslashgan turli mahalliy zotlarni yetishtiruvchi yaylov bu hududlarda qashshoqlikni kamaytirish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Chorvachilikning bu usuli tabiat bilan uyg'unlikda qo'llanilgani uchun mahsuldorlik, barqarorlik va hayvonlarning sog'lom bo'lishiga xizmat qiladi.

Yaylov yerlari makon va vaqt bo'yicha o'zgarib turadigan o'simliklarning eng yuqori mahsuldorligi bilan tavsiflanadi. Bunday sharoitda yaylovlarning mahsuldorligini oldindan aytib bo'lmaydi va mavjud resurslardan samarali foydalanish uchun moslashtirilgan strategiyalar zarur. Chorvador fermerlar bunday sharoitda ko'plab muammolarga duch kelishadi. Yaylov tizimi katta maydonlardan foydalanishga asoslangan bo'lib, iqtisodiy jihatdan barqaror bo'lishi uchun yoqilg'i, ozuqa va o'g'itlardan foydalanish xarajatlarini minimallashtirish juda muhimdir. Tashqi manbalarga kam bog'liqlik tufayli atrof-muhitga ta'siri kamayadi va chorvachilik fermerlarining iqtisodiy barqarorligi oshadi. Mahalliy sharoitga moslashtirilgan zotlardan foydalanish tizimning o'zgaruvchan sharoitlarga moslashish qobiliyatini saqlab qolish, chorvachilik ishlab chiqaruvchilarning iqlim o'zgarishiga chidamliligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasida umumiy yer maydonining 47 foizini (21,1 mln. ga) egallagan yaylovlarning tabiiy o'simliklar qoplami bugungi kunga kelib katta xavf ostida qolgan, ularning maydoni tez sur'atlarda qisqarib bormoqda. Mutaxassislarning fikricha, so'nggi 25-30 yil davomida respublika yaylovlarining 50-70 foizi inqirozga uchragan, 11 mln gektar yaylovlarning qayta tiklanuvchi yem-xashak hosil qilish potentsiali izdan chiqqan va chorvachilik maqsadlarida foydalanish uchun yaroqsiz holatga kelgan.

Keskinlashib borayotgan iqlim o'zgarishi sharoitida yaylovlarning inqirozga uchrashi natijasida mazkur hududlardagi ekologik vaziyat keskinlashgan. Buning oqibatida qurg'oqchilik darajasining ortishi, tuproq eroziyasining kuchayishi va chang-bo'ronlarning hosil bo'lish jadalligi kun sayin ortib bormoqda. Bunday vaziyat nafaqat ushbu yaylov hududlarida istiqomat qiluvchi 4 mln aholining, balki respublikamizning boshqa hududlarida istiqomat qiluvchi insonlarning turmush tarzi va salomatligiga jiddiy ta'sir o'tkazadi. Mazkur muammolar so'nggi yillarda yaylovlardan foydalanish jarayonida ularning xo'jalik imkoniyatlari mutlaqo hisobga olinmaganligi, yaylovlardan almashlab foydalanishning ilmiy asoslangan tartib-qoidalari va normalariga amal qilinmaganligi oqibatida vujudga keldi.

Yaylov hududlaridagi o'simliklar qoplaminin bunday tarzda inqirozga uchrashi qator xavotirli oqibatlarga olib keladi. Jumladan, tabiiy o'simliklar qoplaminin yo'qolib ketishi natijasida yaylovlarning iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatishdagi potentsiali keskin pasayib boradi. Bu esa ushbu hududlarda ekologik vaziyatning yanada yomonlashishiga olib keladi va aholining sog'lom hayot kechirishiga katta salbiy ta'sir o'tkazadi. Qolaversa, yaylov inqirozi ko'laminin yil sayin ortib borishi ushbu hududda yem-xashak tanqisligining vujudga kelishiga sabab bo'ladi. Oqibatda mahalliy aholining asosiy daromad manbai hisoblangan chorvachilik bilan shug'ullanish imkoniyatlari keskin chegaralanadi. Shu nuqtai nazardan yaylovlar inqirozi qator ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning vujudga kelishiga olib keladi. Ushbu muammolarni hal qilish bilan bog'liq qator jihatlar va ularning imkoniyatlari mavjud. Yaylovlarning xo'jalik imkoniyatlari, mavjud tabiiy ozuqa zaxirasi va geobotanik holatining noma'lumligi sohani to'g'ri

yo'lga qo'yishda to'sqinlik qilayotgan muammolardan biri sanaladi. Qishloq xo'jaligi vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, respublika darajasidagi so'nggi kompleks geobotanik tadqiqotlar bundan 34 yil ilgari amalga oshirilgan. Bugungi kunga kelib respublika yaylovlarning hozirgi holatini to'liq aks ettiradigan aniq ilmiy ma'lumotlar mavjud emas.

Yaylovlarning xo'jalik potensialini aniqlash usullari o'tgan asrning 80 yillarda ishlab chiqilgan va bugungi kungacha yaylovlarni baholash usullari takomillashtirilmagan, ayniqsa yaylovlar degradatsiyasi va uning turli bosqichlarini baholashning ilmiy asoslari ishlab chiqilmagan, bu bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlar va unga ajratilayotgan mablag'lar yetarli emas.

Yaylov sohasida mavjud ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarining o'quv rejalari va fan dasturlari eski ma'lumotlar asosida yaratilgan va hozirgi davr talablariga hamda xalqaro ta'lim standartlariga javob bermaydi. Jahonda yaylov ilm-fani taraqqiy etgan rivojlangan davlatlar, xususan AQSH, Avstraliya, Germaniya, Islandiya kabi davlatlardagi ta'lim texnologiyalari mamlakatimiz ta'lim tizimiga joriy qilinishi zarur. Mazkur sohaga ixtisoslashgan alohida kafedralar va fakultetlar tashkil etilishiga katta ehtiyoj mavjud. Sohani rivojlantirish uchun ilmiy-pedagogik kadrlar, ayniqsa yaylovshunos geobotanik olimlarning yetishmasligi yaqqol sezilmoqda. Sohani barqaror rivojlantirish uchun ushbu sohadagi malakali mutaxassislar tayyorlash ko'rsatkichlari keyingi yillarda keskin oshirilishi zarur.

Soha rivojiga to'sqinlik qilayotgan yana bir og'ir muammolardan biri, bu – yaylovlarni boshqarishga mas'ul bo'lgan yuqori tashkilotlardan boshlab to quyi pog'onalgacha sohaga tegishli ish o'rinlarining mavjud emasligi. Joylarda yaylovlardan foydalanish tizimini tartibga soladigan va uni nazorat qiladigan mutaxassislar uchun ish o'rinlarining yaratilishi galdagi kechiktirib bo'lmas vazifa sifatida qaralishi lozim. Yaylovlardan foydalanishda ruxsat berilgan normalarga amal qilish va yaylovlardan foydalanish tizimini qat'iy nazorat qilish maqsadida respublikamizda yaylovlar boshqaruvining qonuniy va huquqiy-me'yoriy asoslari kuchaytirilishi zarur.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Mirziyoev Sh.M. (2020), Agriculture and food production are the most urgent issues. URL: [www.prezident.uz/uz/lists/view/3493](http://www.prezident.uz/uz/lists/view/3493). (In Uzbek).

2. Namozov J.A. (2021), Economic geographical aspects of rational use of land and water resources of Samarkand region: abstract of diss. ... PhD. geogr. sciences. Tashkent, 45 p. (In Uzbek).

3. Rajabov F.T. (2018), Improvement of specialization and territorial composition of farms (in the example of Kashkadarya region): abstract of diss. ... PhD. geogr. sciences. Tashkent, 45 p. (In Uzbek).

4. Rajabov F.T., Khidirov R.Kh. (2023), Features of the development of desert-pasture livestock in the territory of Uzbekistan, Academic Research in Educational Sciences, Vol. 4, Issue 2, pp. 21-26. (In Uzbek).

5. Faizullaev M.A. Theoretical and methodological aspects of the economic geographical study of agriculture and the use of land and water resources // Eurasian Journal of History, Geography and Economics. Volume 16, Belgium, 2023. – p. 39-42.

6. The state of food security and nutrition in the world. Food and Agriculture Organization of the United Nations International Fund for Agricultural Development, United Nations Children's Fund United Nations World Food Programme, World Health Organization Rome, 2022.

7. Nurmatov N.E. Economic and geographical factors of regional organization of agriculture and innovative development//International multidisciplinary journal for research & development. Volume 10, issue 12 (2023). P. 439-442.

8. Nurmatov N.E. [Qishloq xo'jaligida amalga oshirilgan asosiy islohotlarning chorvachilik tarmog'ini rivojlanishiga ta'sirining asosiy xususiyatlari](#) // "Экономика и социум". №2(117) 2024. С. 510- 517

9. Nurmatov Nurbek Ermat o'g'li Chorvachilikni rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi tabiiy sharoit va resurs omillarining asosiy xususiyatlari //

“O`zbekiston zamini” 2024 yil 4 – son. B. 69-71

10. Nurmatov N. E. The main characteristics of using pastures in the development of an uzbekistan livestock network // Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences. – Canada, ISSN: 2835-5326 5 th February, 2024 P. 142-145

11. Nurmatov N. E. The main characteristics of the development of the Livestock network in Uzbekistan // Proceedings of International Educators Conference. - Italy, ISSN: 2835-396X. Date: 25 th January, 2024 P.129-133